

CHET TILLARINI O'QITISHDA INNOVTSION YONDASHUVLAR

Abduxalilova Marjona Azamat qizi,

O'zDJTU 3- bosqich talabasi,

Ilmiy maslahatchi: Xujaniyazova Hilola Turayevna,

Katta o'qituvchi, O'zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni tahlil qiladi. Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi kontekstida, interaktiv o'qitish metodlari, onlayn ta'lim platformalari, gamifikatsiya va aralash o'qitish kabi yondashuvlarning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar natijalari orqali, ushbu metodlarning talabalar orasida muvaffaqiyat darajasini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatgani keltiriladi. Innovatsion yondashuvlar nafaqat ta'lim jarayonini yaxshilash, balki talabalarni global muhitda raqobatbardosh qilish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Maqola chet tillarini o'qitishda yangi imkoniyatlarni yaratish va kelajakda bu yondashuvlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: interaktiv o'qitish metodlari, onlayn platform, Coursera, Duolingo, Rosetta Stone, gamifikatsiya, blended learning

Annotation. This article analyzes innovative approaches to teaching foreign languages. In the context of globalization and the development of information technologies, the effectiveness of such approaches as interactive teaching methods, online learning platforms, gamification and blended learning is examined. The results of the research show how these methods have influenced the level of success among students. It is emphasized that innovative approaches are important not only for improving the educational process, but also for providing students with the necessary skills to be competitive in a global environment. The article shows the need to create new opportunities in teaching foreign languages and develop these approaches in the future.

Key words: interactive teaching methods, online platform, Coursera, Duolingo, Rosetta Stone, gamification, blended learning

Kirish

Globalizatsiya jarayoni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta'limda chet tillarini o'rganishning ahamiyatini yanada oshirdi. Bugungi kunda an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, innovatsion yondashuvlar chet tillarini o'qitishda samaradorlikni oshirish uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda. Innovatsion yondashuvlar — bu yangi g'oyalar, metodlar yoki texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini yaxshilash va uni zamon talablariga moslashtirishdir. Ayniqsa, interaktiv o'qitish metodlari talabalar o'rtasida faol muloqot va hamkorlikni rag'batlantiradi, ularning fikrlarini ifoda etish, muammolarni hal qilish hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi (Blaschke & Hase, 2016). So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlardan foydalangan holda chet tilini

o'rganayotgan talabalar orasida muvaffaqiyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada, taxminan 30% ga oshgan.

Bundan tashqari, onlayn ta'lim platformalari masofaviy ta'limni yanada samarali qiladi. Coursera, Duolingo, Rosetta Stone kabi platformalar orqali talabalar o'zlariga qulay vaqt va joyda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshirish bilan birga, o'qish samaradorligini 25% ga yaxshilashga yordam beradi (Hedge, 2000; Mayer, 2009). Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish – gamifikatsiya ham talabalar motivatsiyasini oshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Gamifikatsiya jarayonida o'yin mexanizmlari yordamida o'quvchilarni o'rganishga jalb qilish darajasi oshadi va bu o'rganish samaradorligini 40% ga yaqin yaxshilashi ma'lum (Blaschke & Hase, 2016).

Aralash o'qitish (blended learning) esa an'anaviy va onlayn ta'lim usullarining birlashmasi sifatida ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan va samarali qiladi. Bu yondashuv talabalarni faollashtirish, mustaqil o'rganishga rag'batlantirish va darslarda faol ishtirok etish imkonini beradi (Hedge, 2000). O'zbekiston va Xitoyda o'tkazilgan tadqiqotlar innovatsion metodlarning o'quvchilarning o'rganish muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini, ba'zan esa an'anaviy metodlarga qaraganda 20-50% ga ko'proq natija berishini tasdiqlaydi (Mayer, 2009).

Chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar nafaqat o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi, balki talabalarni zamonaviy global muhitda raqobatbardosh qilish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Shu bois, interaktiv metodlar, onlayn platformalar, gamifikatsiya va aralash o'qitish kabi yondashuvlarni ta'lim tizimida kengroq joriy qilish, ularni muntazam ravishda yangilab borish muhim hisoblanadi. Kelajakda bu metodlarni yanada rivojlantirish va integratsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, o'quvchilarni nafaqat til o'rgatish, balki ularni real hayot va ish faoliyatiga tayyorlash maqsadida yangi imkoniyatlar yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Blaschke, L. M., & Hase, S. (2016). Gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education. In M. Ally & A. Tsinakos (Eds.), *The handbook of mobile learning* (pp. 113–126). Routledge.
2. Hedge, T. (2000). *Teaching and learning in the language classroom*. Oxford University Press.
3. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Hedge, T (2000). "Teaching and learning in the Language Classroom". Oxford University Press
5. Abdukhayotovna A. K. THE ROLE OF AUTHENTIC MATERIALS TO DEVELOP PUPILS' COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH

- CLASSES AT ACADEMIC LYCEUMS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
6. Mayer, R.E.(2009). “Multimedia Learning”. Cambridge University Press
 7. Blaschke, L.M, Hase,S. (2016). “Gamification of learning and instruction: Game-Based methods and strategies for training and education”. In “The handbook of mobile learning” (pp.113-126) Routledge
 8. Xujaniyazova, H. (2024). YURIDIK RITORIKADA MADANIYATNING AKS ETISHI. TAMADDUN NURI JURNALI, 6(57), 228-230.
 9. Rashidova, G. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA YOZISH KO'NIKMASINI O'RGATISH JARAYONIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Engineering problems and innovations
 10. Sultonova, M. (2024, October). Features of Critical Thinking Skills for B1 Level Learners. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 786-790).
 11. SULTONOVA, M. (2024). On the issue of critical thinking.
 12. Mamatkulova, F., & Abduvaliyeva, M. (2025, April). MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 186-187).
 13. El Agez, B., & Rashidova, G. I. (2024). Authentic materials for teaching writing: a critical look. O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 21-30.